

ILMIY TADQIQOT: YANGI QURILMALAR TAQDIMOTI

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Fizika-texnika instituti “Yuqori sezgirli yarim o‘tkazgichli datchiklar laboratoriyasi”da institut direktori, professor X.K. Olimov, ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari f.-m.f. bo‘yicha PhD B.A. Ergashev, laboratoriya mudiri, akademik R.A. Muminov, texnika fanlari doktori M.N. Tursunov, professor X.O. Sabirov, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti “Nasos stansiyalari va gidroelektr stansiyalari” kafedrasida dotsenti N. Ikramov hamda laboratoriya doktorantlari va stajor-tadqiqotchilari ishtirokida yangi innovatsion texnologiya va ishlanmalari taqdimoti bo‘lib o‘tdi.



Ushbu tadbir laboratoriya mudiri, akademik R.A. Mo'minov hamda muqobil energiya manbalari guruhi rahbari, texnika fanlari doktori M.N. Tursunov rahbarligida muqobil energiya manbalarini rivojlantirishga oid O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasi farmon va qarorlarida iqtisodiyot va ijtimoiy sohada energiya sarfini kamaytirish, zamonaviy tejamkor texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan vazifalar hamda joriy yil “Atrof muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” nomlanishi munosabati bilan tashkil etildi. Laboratoriya olimlari, texnika fanlari doktori M.N. Tursunov hamda professor X.O. Sabirovlar

shogirdlari bilan amalga oshirilgan ilmiy-amaliy izlanishlari natijasida respublikaning issiq iqlim sharoitiga moslashtirilgan har xil turdagi fotoelektrik va fotoissiqlik batareyalar va qurilmalarning tajribaviy texnik ishlanmalari yaratildi. Ishlab chiqilgan yangi qurilmalar elektr va issiqlik energiya manbalari bo'lib, yer sathidan 100 metrgacha chuqurlikda joylashgan suvni chiqarish, aholi punktlaridan uzoqda joylashgan obyektlarni elektr energiya va issiq suv bilan ta'minlash, sho'r suvlarni toza ichimlik suviga aylantirish, tomchilab sug'orish, fermer xo'jaliklarida mahsulotlarni qayta ishlashda elektr va issiqlik energiya bilan uzluksiz ta'minlashga mo'ljallangan.

Yaratilgan yangi texnologiya va ishlanmalar:

Suvsiz quruq iqlim sharoiti uchun yangi analogi yo'q sovutish tizimiga ega quvvati 1000 Vatt bo'lgan avtonom mobil fotoelektrik va fotoissiqlik qurilma.

Quyosh nurlanishini issiqlikka aylantirishni ta'minlovchi, minerallashtirilgan suvni ichimlik suviga aylantiruvchi kristalli kremniy tuzilmalari asosidagi yuqori samarali issiqlik kollektori va qurilmasi.

Ekstremal tog' va tog'oldi hududlarda yil davomida qish va yoz oylarida kerakli quyosh nurlanishi intensivligini yaratish hisobiga kafolatlangan elektr energiya va issiq suv yetkazuvchi avtonom mobil fotoelektrik va fotoissiqlik qurilma.

Qiyaligi 20o gacha bo'lgan hududlarda fotoissiqlik qurilma asosidagi avtonom ko'chma boshqariluvchi tejamkor tomchilab sug'orish tizimi.